

## 2-dars

### Darsning mavzusi: Tovushlar va harflar (6 – 10-mashqlar)

**Darsning ta'limiy maqsadi:** nutqiy matn qismlarini o'zaro bog'lash, rasmga qarab hikoya tuza olish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, o'z fikrini mustaqil bayon qilgan holda ifodali va izchil nutq yaratish, nutq, gap, so'z haqidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda davlat ramzlariga hurmat, vatanparvarlik hissini shakllantirish, tarixiy obidalar, mamlakatimiz boyliklari, ularni asrash bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; davlat ramzlariga nisbatan hurmat va iftixor hissini shakllantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

**Darsning turi:** o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat, mustaqil ish metodi, *"Men bilib oldim!"* va *"Quvnoq alifbo"* ta'limiy o'yinlari.

**Darsning jihozi:** mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

### Darsning borishi

#### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

#### II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uyga vazifani tekshirish. Berilgan 5-mashq o'quvchilar bo'yicha tuzib kelingan hikoyalar o'qib beriladi. Eng kreativ yondashilgan hikoya egalarini o'quvchilar o'zlari tanlaydilar.

### **Husnixat daqiqasi: Toshkent – g o‘zal shahar.**

O‘qituvchi husnixat qoidalarini o‘quvchilarga eslatadi. To‘g‘ri o‘tirish, daftar va ruchkadan to‘g‘ri foydalanish, harf unsurlariga e‘tibor berish, harflarning yozuvda bir-biriga ulanishi, qo‘lni uzmasdan yozish va so‘zlar orasidagi masfalar qanday bo‘lishini tushuntiradi.

### **III. Yangi mavzu bayoni.**

Qoida bilan o‘quvchilar tanishtiriladi. Mavzu taqdimot yordamida tushuntiriladi.

- Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gap so‘zlardan, so‘zlar esa harflardan tashkil topadi.

**6-mashqda** taqdim etilgan she‘r o‘quvchilarga eshittiriladi. She‘rda nima haqda so‘z yuritilayotgan haqida fikrlar bildiriladi, izohlanadi. Savol va topshiriqlar bilan ishlanadi.

1. *Ajratilgan s o‘zlarda nechta tovush bor?*
2. *Ular necht harfdan iborat?*
3. *O‘zbek tilida nechta tovush bor?*
4. *Yozuvda tovushlar nima orqali ifodalanadi?*

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**7-mashq** og‘zaki bajariladi. Maqollar o‘qilib, ma’nolari izohlanadi. Ularda ishtirok etgan so‘zlarda nechta tovush va nechta harflar borligi aytiladi.

**8-mashq** yozma bajariladi. Topishmoqlar javoblari topilib, ulardagi harf, tovush, bo‘g‘in, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in, unli va undosh harflar ishtirokiga ko‘ra berilgan jadval t o‘ldiriladi.

*Javoblar: soat, soyabon, ....*

**9-mashqda** o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, *“Men bilib oldim!”* o‘yinini bajaradilar. Birinchi guruh o‘quvchilari hayvonlar tovushlariga, ikkinchi guruh o‘quvchilari esa narsa va hodisalar tovushlariga taqlid so‘zlarni aytadilar.

**10-mashq** yozma bajariladi. Maqollar davom ettirilib, husnixat asosida daftarga tushiriladi.

*Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni*

*Suvsiz hayot bo‘lmas, mehnatsiz – odam.*

*Birliksiz kuch bo‘lmas.*

*Sog‘ tanda – sog‘lom aql.*

**“Quvnoq alifbo” o’yini.** O’quvchilar tarqatmadagi raqamlarga yashiringan hikmatlarni topishlari vazifa qilib beriladi. Raqamlar alifbodagi harflarni topishlari vazifa qilib beriladi. Raqamlar alifbodagi harflar tartibini bildiradi.

| <b>Raqamlarga yashiringan hikmat</b>                           | <b>Javobi</b>              |
|----------------------------------------------------------------|----------------------------|
| 8 11 12 11 8 10 8 27 8 22 14 17 2 25 11 12 1 18                | Ilmli kishi xor bo’lmas    |
| 10 8 19 14 2 – 2 8 11 8 12 2 20 11 14 26 8                     | Kitob – bilim bulog’i      |
| 12 4 7 13 1 19 10 8 27 8 13 8 20 11 20 11 20 26 11 1<br>23 3 8 | Mehnat kishini ulug’laydi. |

#### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunida o’quvchilar joriy darsda o’zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So’ngra dars davomida faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

11-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.